

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti
rektori, Kengash raisi:

 D.Xodjayeva
 2025-yil



**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA KURS
ISHINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA**

Y O ‘ R I Q N O M A

QO‘QON 2025-YIL

Qo‘qon davlat universiteti ta‘lim yo‘nalishlarida kurs ishini

tashkil etish bo‘yicha

YO‘RIQNOMA

Mazkur Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2005-yil 21-fevraldagi 34-son buyrug‘i O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018-yil 10-sentabrdagi 20-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasasi professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ishlarini belgilash Qoidalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son Qarori hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-son buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, Qo‘qon davlat universiteti ta‘lim yo‘nalishlarida kurs ishi (loyihasi)ni tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi.

I. Kurs ishiga qo‘yiladigan talablar

1.1. Kurs ishi (loyihasi) (keyingi o‘rinlarda – kurs ishl) – oliy o‘quv yurtlari talabalari tomonidan o‘quv rejasidagi umumkasbiy va maxsus fanlar bo‘yicha bajariladigan mustaqil ish bo‘lib, malakali professor-o‘qituvchilar rahbarligida talabalarda to‘plangan nazariy bilimdan muayyan masalani yechishda mustaqil foydalanish ko‘nikmasini yoki mavzuni chuqur o‘rganish maqsadida bajariladi.

1.2. Kurs ishi ishchi o‘quv rejada ko‘rsatilgan fan bo‘yicha yoziladi.

1.3. Kurs ishi yozilayotgan fan kurs ishi yozilayotgan semestrda yakunlanishi kerak.

1.4. Kurs ishini bajarish o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan fan bo‘yicha har bir talaba uchun majburiydir.

1.5. Talaba kurs ishini bajarish natijasida o‘zining tadqiqot olib borish imkoniyatini ko‘rsata bilishi kerak.

Shu maqsadda talabalar qo‘yidagi malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur:

- mutaxassislik fanlari bo‘yicha bibliografik ko‘rsatkichlardan foydalanishni o‘rganish;
- mavzu bo‘yicha minimal darajadagi muayyan adabiyotlarni o‘rganish va zaruriy ma‘lumotlarni qayd qila olish;

- zamonaviy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida o‘rganilayotgan masalaning holatini izchil bayon qilish;

- tajriba-simov ishini o‘tkazish, qo‘lga kiritilgan empirik (tajribaga asoslangan, tajribadan olingan) materialni qayta ishlash, uni tahlil qilish, tizimga solish, izohlash va zaruriy xulosalarni chiqarish.

1.6. Kurs ishini bajarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- kurs ishi mavzusini tanlash;
- kafedra tomonidan tavsiya qilingan adabiyotlarni o‘rganish, ulardagi kerakli ma‘lumotlardan foydalanish;

- kurs ishi rejasini tuzish;

- nazariy ma‘lumotlarni umumlashtirish;

- amaliy qism ustida ishlash tahlil qilish,

- ishning matnini yozib, rasmiylashtirish va ilmiy rahbarga taqriz uchun taqdim etish;

- kurs ishi himoyasiga tayyorlanish.

II. Tadqiqot mavzusini tanlash

2.1. Kurs ishi mavzulari o'quv yili boshlanishiga qadar tegishli kafedralarda ishlab chiqiladi va kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi, tasdiqlanadi hamda o'quv yilining boshida talabalarga ma'lum qilinadi.

2.2. Kurs ishi mavzularining to'plami quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- a) bo'lajak pedagog kadrlari tayyorlash vazifalariga mos kelishi;
- b) zamonaviy ilmiy-pedagogik tadqiqotlar yo'nalishlari va muammolarini hisobga olishi;
- v) psixologik-pedagogik nazariya va amaliyot sohasiga nisbatan talabalarning xilma-xil qiziqishlarini hisobga olishi;
- d) maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berishning dolzarb muammolarini ishlab chiqishi zarur.

2.3. Kurs ishi mavzulari turli usullar yordamida belgilanishi mumkin:

1) Talaba o'z amaliy faoliyatida fandan duch kelayotgan qiyinchiliklarini bartaraf qilish uchun yordam beruvchi mavzu bo'yicha ishlash ham mumkin. Bu yo'nalishdagi mavzularni odatda OTMga kirguniga qadar pedagogik faoliyat olib borgan yoki ish bilan o'qishni birgalikda olib borayotgan talabalar tanlab oladilar.

2) Talaba o'z qiziqishlariga mos keluvchi mavzular bo'yicha ish olib boradi.

Talabaga mustaqil ravishda tadqiqot mavzusini tanlashida quyidagi usullar yordam beradi:

- a) yetakchi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan ilm-fan yutuqlarining qisqa tahliliy tafsilotlarini o'rganish (chunki ushbu tafsilotlarning oxirida hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar albatta ko'rsatiladi);
- b) oldin bajarilgan tadqiqotlarda o'rganilgan muammolarga yaqin mavzularni tanlash, bunda yangi va yana ham mukammalroq metodlardan foydalanish;
- v) tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan, ammo o'rganilmagan gipotezalarni tekshirish;
- g) maxsus adabiyotlar va davriy ilmiy nashrlar bilan muntazam tanishib borish;
- d) dolzarb ahamiyatga ega, kam o'rganilgan muammo va masalalarni aniqlash maqsadida yetakchi olimlar bilan maslahatlashish.

2.4. Kurs ishi mavzusi tanlanib, ilmiy rahbar bibiriktirilganidan so'ng kurs ishini bajarish bosqichlari aniqlashtirilgan taqvim-reja ishlab chiqiladi.

Mazkur reja tadqiqot ishining borishini nazorat qilishga imkoniyat yaratadi va talabaga kurs ishini mustaqil ravishda bajarishiga yordam beradi.

III. Kurs ishining tarkibiy tuzilishi

3.1. Kurs ishi titul varag'i, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lishi shart.

Agar ilovalar bo'lsa, adabiyotlar ro'yxatidan keyin joylashtiriladi.

3.2. Kurs ishi **rejasi** kurs ishida o'rganilayotgan muammo xususiyatlarini qamrab olishi lozim. Kurs ishi rejasidagi savollarning nomlari kurs ishining tegishli joylarida sarlavha sifatida takrorlanishi lozim.

3.3. Kurs ishi o'zbek tilida bo'lsa lotin alifbosida, rus tilida bo'lsa kirill alifbosida elektron shaklida yozilishi zarur.

3.4. Tahlil qilinayotgan muammo yuzasidan talaba turli adabiyot va manbalardan foydalanadi.

Ishni bajarishda talabalar professional etika qoidalarini buzilishi (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish hamda yolg'on iqtibos keltirish)ga yo'l qo'ymasliklari lozim.

3.5. Kurs ishi, qoida tariqasida, standart varaqda 1,5 qator oralig‘i (interval)da Times New Roman yozuvida 14 shriftida yozilishi lozim. Har bir bet hoshiyasi: chapdan – 3 sm, yuqoridan va pastdan 2 sm, o‘ngdan 1,5 sm bo‘lishi kerak.

Har bir sahifada 30 ta satr, har bir satrda 60 ta belgi (so‘zlar orasidagi o‘tishlar va tinish belgilarini hisoblagan holda) bo‘lishi kerak.

3.7. Kurs ishida havolalar 2 xil ko‘rinishda berilishi mumkin:

1) ketma-ketlikda raqam qo‘yish (masalan, – ^{1,2,3}), ya‘ni, bunda sahifaning quyi qismida yuqorida ko‘rsatilgan raqam ostida manbaa muallifining ism-sharifi, adabiyot nashr etilgan joy va nashriyot nomi, nashr etilgan yil va va beti ko‘rsatiladi;

2) kvadrat qavslardagi raqamlar qo‘yish yordamida [1, B.170], [3, B.185] yoki [3, B.132, 185, 193] shaklida yoziladi, ya‘ni, bunda adabiyotning adabiyotlar ro‘yxatidagi raqami va havola olingan beti ko‘rsatiladi.

3.8. Kurs ishi **titul varag‘i** 1-ilovada berilgan talablar asosida shakllantiriladi.

3.9. Kurs ishi **mundarijasida** kurs ishining rejalari aks ettiriladi. Mundarija kurs ishining tuzilishiga qat‘iy mos bo‘lishi, qisqa, lo‘nda, ketma-ketlikda va aniq tarzda uning ichki mantiqini ochib berishi zarur.

Shuningdek, unda ishning har bir bobi va paragrafi qaysi sahifadan boshlanishi aniq ko‘rsatiladi.

3.10. Kurs ishi **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va uning ahamiyati, aniq sharoitlarda bu masalaning qo‘yilishi va yechimining o‘ziga xos jihatlarini asoslab beriladi. Tadqiqotning asosiy g‘oyasi haqida ma‘lumot beriladi.

Kirish qismi 2-3 varaqdan iborat bo‘ladi.

3.11. Kurs ishi **asosiy qism** rejadagi asosiy punktlarni o‘z ichiga oladi. Asosiy qism o‘rganilgan mavzudagi tashkiliy ishlarni takomillashtirish va ta‘lim muassasalarida ta‘lim samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar bilan tugallanadi.

Jumladan, unda:

- tekshirilayotgan masalaning tarixi va nazariyasi ko‘rsatiladi;
- mavjud adabiyotlarning tahlili beriladi;
- muallifning o‘z nuqtayi nazari bayon qilinadi;
- mustaqil ravishda o‘tkazilgan tadqiqotning metodlari, tashkil etilishi va natijalari bayon qilinadi.

s) **Xulosa va taklifkarda** o‘tkazilgan tadqiqotga qisqacha yakun yasalib, tanlangan kurs ishi mavzusi yo‘nalishlariga muvofiq holda kasbiy faoliyatini tashkil etish va pedagogik jarayonlarni takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq takliflar bayon etiladi.

Xulosaga qo‘yiladigan asosiy talab, uning qisqa va mulohazaliligidir.

d) **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida** asarlar mualliflarining ism-sharifi ko‘rsatilib, alfavit tartibida tuziladi. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari kabi me‘yoriy hujjatlardan foydalanilgan bo‘lsa birlamchi tartibda yoziladi.

Ro‘yxatga talaba tomonidan kurs ishini yozish jarayonida foydalanilgan barcha adabiyotlar kiritiladi (bunda ular qayerda nashr qilinganidan qat‘iy nazar alohida nashr, to‘plam, jurnal, gazeta bo‘lsa ham albatta ko‘rsatilishi shart).

Masalan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 6(766)-son.

2. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyuldagi 315-son qarori.

3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz keljak yo'q. Toshkent: "Sharq", 1998.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2021.

5. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent: "Sharq", 2000.

6. Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т.І. Историческое сознание. Ташкент: "Узбекистан", 2008.

e) **Ilovalar.** Agar kurs ishida ilovalar bo'lsa, odatda, alohida sahifalarda ko'rsatiladi. Ularning har biri o'z mavzusiga ega bo'ladi va o'ng tomonining yuqorisida "Ilova" degan yozuv qayd qilinadi. Agar ilovalar bir nechta bo'lsa ular 1-ilova, 2-ilova tarzida rasmiylashtiriladi.

Ilovaga mustaqil ravishda tuzilgan, anketalar yordamida yig'ilgan empirik (tajribaga asoslangan, tajribadan olingan) materiallar, darslar va tarbiyaviy tadbirlarning konspektlari, kuzatishlar bayonnomalari, bayram senariylari, bolalarning fotosuratlari va boshqalar joylashtiriladi.

3.4. Kurs ishida tadqiqotning asosiy ta'rif va tavsif (xarakteristika)lari to'g'ri shakllantirilganligini bilish uchun quyidagi savollarga javob berishga harakat qilinishi kerak:

- kurs ishi muammosini aniqlashda – *oldin o'rganilmagan muammolardan qaysi birini o'rganish zarur?*

- kurs ishi mavzusini tanlashda – *tadqiqot muammosi kurs ishi mavzusida o'z aksini topganmi?*

- kurs ishida dolzarblikni asoslashda – *nima uchun aynan shu muammoni bugun o'rganish shart?*

- kurs ishi obyektini belgilashda – *nima tekshiriladi?*

- kurs ishi predmetini aniqlashda – *obyektning qaysi yangi jixatlari, munasabatlari aspektlari, tomonlari, funksiyalari tadqiq qilinishi zarur?*

- kurs ishi maqsadini shakllantirishda – *maqsadga erishish uchun nima qilish kerak? Amalga oshiriladigan vazifalar vositasida maqsadga erishish mumkinmi?*

- kurs ishi gipotezasini ilgari surishda – *tadqiqot maqsadiga erishish uchun qaysi yo'ldan borish zarur?*

- ochiq himoyaga olib chiqilayotgan holatlarni aniqlashda – *tadqiqotning ob'yekti va predmetida boshqalar sezmaganday xususiyatlar bor? va h.k.*

3.5. Kurs ishi talabalarni pedagogik tadqiqotga jalb qilishning birinchi bosqichi bo'lganligi tufayli unda barcha xarakteristikalarini ko'rsatib berish shart emas. Ularning ayrimlarigina, xohishga ko'ra, aniqlantirilishi mumkin (masalan gipoteza). Xarakteristikalarini shakllantirish ilmiy rahbar malakasi mahorati, talabaning tayyorgarligi, tadqiqot mavzusining spetsifikasiyasi va boshqa vaziyatlarga bog'liq bo'ladi.

3.6. Kurs ishini tanlangan mavzuga doir adabiyotlar, manbalar bilan ishlashdan boshlash zarur. Bunda, bibliografik ma'lumotlarning 3 xil manbasi ajratiladi:

- maqolalar, dissertatsiyalar, monografiyalar va boshqalar;

- bibliografiya, referativ jurnallar, ilmiy axborot jurnallar va boshqalar;

- lug'atlar va boshqalar.

Bibliografik (qayerda, qanday manbalarda zaruriy ma'lumotlar bor) va sof ilmiy-ma'lum bo'lgan bilimlar mazmunini bildiruvchi ma'lumotlarni farqlash kerak.

3.7. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ma'lumotlar yig'ish natijasida quyidagilarga ega bo'lish lozim:

a) kim va qayerda (qaysi ilmiy muassasa, markazlarda) tadqiqot mavzusi yuzasidan ishlagan va ishlamoqda?

b) ushbu ishlarning natijalari qaysi manbalarda e'lon qilingan?

s) mazkur natijalar nimalardan iborat?

3.8. Talaba tomonidan to'plangan ma'lumotlar yozma ravishda qayd qilinadi. Ularning uch turi mavjud:

Birinchi tur materiallarda bibliografik kartochkalardagi yozuvlar, sitatalar, mikrofilmlar, tadqiqot muammosiga doir alfavit, katalog kiradi;

Ikkinchi tur materiallarda ilmiy yoki metodik manbadagi ma'lumotlarni analitik-sintetik qayta ishlash natijasi bo'lgan yozuvlar, rejalar (sodda va murakkab), grafik-sxemalar, mustaqil ravishda tuzilgan predmet ko'rsatkichlar, annotatsiya, tezis, konspekt va boshqalardan iborat bo'ladi;

Uchinchi tur materiallarda birinchi va ikkinchi materiallar umumlashtiriladi.

Uning mazmuni qisqa tafsilot ko'rinishida bo'lib, unda mavzuga doir oldindan ma'lum bo'lgan ilmiy dalillar, qonuniyatlar, nazariyalar, tushunchalar umumlashtiriladi.

3.7. Tafsilotni tuzishdan avval tanlangan kurs ishi mavzusiga doir asosiy tushunchalarni aniqlashtirish lozim. Chunki, adabiyotlarda turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinayotgan atama va tushunchalar kurs ishining boshidan oxirigacha bir ma'noda tushunilishi zarur.

3.8. Tushuncha va atamalar belgilanganidan so'ng ularning izohi quyidagi manbalardan aniqlashtiriladi:

a) ensiklopediyalar (masalan, pedagogik, psixologik, filosofik va boshqalar);

b) izohli lug'atlar: umumiy va maxsus (masalan, pedagogik, psixologik, sotsiologik);

v) tadqiqot mavzusiga doir asosiy darsliklar va monografiyalarning mundariyasi.

Tushunchalarning izohi topilganidan so'ng alohida varaqalarda qayd qilinadi va tahlil, qiyoslash, tasmiylash, umumlashtirish usullari yordamida mazmunan qayta ishlanadi.

Tadqiqot mavzu bo'yicha tafsilot yozishda o'rtacha 15-20 ta manbadan foydalanish tavsiya etiladi.

3.9. Kurs ishidagi eng muhim nuqtalardan biri xulosalarni muhokama qilish jarayoni hisoblanadi.

Bunda quyidagi savollarga javob topish zarur: *Nima uchun shunday bo'ldi? Bunining sabablari nimada? U yoki bu dalilni nima bilan izohlash mumkin?*

Ishning bu bosqichida boshqa mualliflar tomonidan olingan nazariy va amaliy xulosalarni jalb qilish, ya'ni ular bilan o'z shaxsiy xulosalarini qiyoslab ko'rish, olingan ma'lumotlarni tushuntirish, izohlash zarur bo'ladi. Natijalar asosiy matnda qanday tartibda berilgan bo'lsa ularni shu tartibda xulosalab ko'rsatish lozim.

3.10. Kurs ishi mantiqiy izchillikda, adabiy tilda yoziladi. Unda murakkab qo'shma gaplardan, shuningdek, o'ta sodda gaplarni ishlatish maqsadga muvofiq emas.

Mening kuzatishimcha, men hisoblaymanki, mening fikrimcha tarzida 1-shaxs birlik nomidan gapirish o'rniga *kuzatishimizcha, hisoblaymizki, fikrimizcha* kabi iboralardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kurs ishini yozishda yagona uslub saqlanishi, hozirgi o'zbek (yoki rus) adabiy tilining orfografik, sintaktik va stilistik me'yorlariga amal qilinishi lozim.

IV. Kurs ishiga rahbarlik qilish

4.1. Kurs ishiga rahbarlik tegishli kafedraning pedagogik staj, tajribaga ega bo'lgan yoki ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan professor-o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

4.2. Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda yoziladi, bunda kurs ishi rahbarining metodik ko'rsatmalaridan foydalanadi va ishining borishi yuzasidan rahbariga hisobot berib boradi.

4.3. Kurs ishi rahbarining vazifalari:

- tadqiqot ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- mavzu yuzasidan asosiy adabiyotlar, ma'lumotlar, arxiv materiallarini va boshqa manbaalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- tadqiqot ishining bajarilish jarayonini nazorat qiladi;
- kurs ishini tekshiradi, unga taqriz beradi va himoyaga tavsiya etadi.

V. Kurs ishi himoyasi

5.1. Kurs ishi himoyasi kurs ishi yozilayotgan fandan yakuniy nazoratlarga qadar fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan jadval asosida o'tkazilishi kerak.

5.2. Kurs ishini rasmiylashtirish fakultet dekani tomonidan farmoyish shaklida chiqariladi va talabalarga semestr boshlanishida ma'lum qilinadi.

5.3. Kurs ishi fakultet dekani farmoyishida ko'rsatilgan komissiya raisi va a'zolari oldida himoya qilinadi.

5.4. Kurs ishi himoyasida komissiya raisi va kamida 2 nafar ilmiy unvon yoki darajaga ega professor-o'qituvchi ishtirok etadi. Professor-o'qituvchining kurs ishi himoyasini o'tkazishda ishtirok etishi tegishli qaydnomalarda aks ettiriladi.

5.5. Kurs ishining himoyasi taqdimot (prezintatsiya) shaklida, ochiq ravishda o'tkaziladi.

5.6. Kurs ishi muallifi 10-15 daqiqa davomida ish yuzasidan ma'ruza qiladi va o'qituvchi-talabalarining savollariga javob beradi. Ma'ruzada muammoning o'rganilish holati, tajriba-sinov ishlarining natijalari (agar o'tkazilgan bo'lsa), tadqiqotning istiqboli, xulosa va takliflar aks etgan bo'lishi lozim.

5.7. Kurs ishi himoyasi natijasida talaba tomonidan olingan ball talabaga ko'rsatilgan semestrda stipendiya tayinlashda asos qilib olinadi.

VI. Kurs ishini baholash

6.1. Kurs ishi (loyihasi) himoyasi fanning kurs ishi bajarilishi ko'zda tutilgan semestrda joriy nazorat sifatida tashkil etiladi.

Kurs ishi 100 ballik tizimda baholanadi:

- ilmiy rahbar tomonidan rasmiylashtirilishi, qo'yilgan topshiriqlarni bajarilishi, ilmiy asoslanganligi va boshq. uchun – 50 ballgacha;
- kurs ishi himoyasi komissiyasi tomonidan talabaning natijalari – 50 ballgacha baholanadi.

VII. Kurs ishi bo'yicha vaqt me'yorlari

7.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 10-sentabrdagi 20-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustozshogird" ishlarini belgilash Qoidalari"da kurs ishlariga rahbarlik qilish hamda kurs ishi himoyasini o'tkazish bo'yicha quyidagi tartibda vaqt me'yorlari taqsimlangan:

- bir kurs ishi uchun – 2 soat;
- bir kurs ishi uchun – 3 soat.

7.2. Bir professor-o'qituvchi bir semestr davomida, odatda 50 nafargacha talabaga (ko'pi bilan 1-2 ta akadem guruh talabalariga) kurs ishi bo'yicha rahbarlik qilishi mumkin.

- bir kurs ishi himoyasi uchun – 0,4 soat;

- bir kurs ishi himoyasi uchun – 0,6 soat.

Bunda professor-o'qituvchining bir kunlik ish soati hajmi 8 soatdan oshmasligi lozim. Jami soatlar himoyada ishtirok etgan professor-o'qituvchilar soniga bo'linadi va ular o'rtasida teng taqsimlanadi.

VIII. Kurs ishi ning saqlanishi

8.1. Himoya o'tkazilgandan so'ng kurs ishining saqlanishi holatiga tegishli kafedra mudirlari mas'uldirlar.

8.2. Kurs ishini kafedralarning metodik xonasida 2 yil muddat davomida tegishli tartibda saqlanadi.

Qo'qon davlat universiteti Kengashining 2025-yil 31 - 05 dagi 2 -sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI**

Fakultet nomi

Talabaning familiyasi

ismi

otasining ismi

kursi, ta'lim yo'nalishi

kafedra nomi

KURS ISHI MAVZUSI

*Kurs ishi ilmiy rahbarining familiyasi,
ismi, otasining ismi*

Ilmiy daraja va unvoni

Kurs ishi yozilgan joy, yil